

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK  
KAFEDRASI

# "ADABIY MANBASHUNOSLIK VA MATNSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI

TOSHKENT SHAHRI  
15-NOYABR 2023-YIL

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrası**

**“ADABIY MANBASHUNOSLIK  
VA MATNSHUNOSLIKNING  
DOLZARB MUAMMOLARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy  
konferensiyasi materiallari**

2023-yil 15-noyabr

**TOSHKENT – 2023**



**UO'K 82.09:801.73**

**KBK 83.3**

**Sh 91**

**ISBN 978-9943-8958-5-0**

**“ADABIY MANBASHUNOSLIK VA MATNSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI / – TOSHKENT: 2023. BET.**

**Mas'ul muharrir:**

**Sh.Sirojiddinov**

*filologiya fanlari doktori, professor*

**Tahrir hay'ati:**

**Zohidov R.F.,**

*filologiya fanlari doktori, professor;*

**Abdulxayrov M.X.,**

*filologiya fanlari doktori, professor;*

**Shukurova Z.Y.,**

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;*

**Izzatillayev P.I.,**

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;*

**Azizulloh A.A.,** dotsent;

**Mansurov S.H.,** katta o'qituvchi;

**Asrorov K.O.** o'qituvchi;

**Jalilov Sh.S,** o'qituvchi;

**Ne'matov A.A.,** magistrant.

Ushbu to'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrasi tomonidan **“Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb muammolari”** mavzusidagi 2023-yil 15-noyabrda o'tkazilgan Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallaridan tashkil topgan.

To'plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o'quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.



Azimova Lola. <i>Islom tarixiga oid qissalarning qo'lyozma va toshbosmalari tavsifi</i> .....	233
Adizova Obodon, G'aybullayeva Gulmera. <i>Folklorshunoslik manbalarida maqollarning berilishi, o'rni va xususiyati</i> .....	238
Adilova Shohista. <i>Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida qo'llanilgan ma'muriy-boshqaruv tizimidagi mansab va Unvon nomlari</i> .....	244
Kattayev Po'lat. <i>Mahdumi A'zam Dahbediy asarlarining qo'lyozma manbalari</i> .....	249
Nuridinova T.S, Yernazarov F.T., Nurmatov Yo.I. <i>Markaziy Osiyo madrasalari tarixidan</i> .....	255
To'raqulova S, Jo'rayev Sh. <i>Mumtoz matnlarda muhabbat mavzusi talqini</i> .....	266
Valiev Saydakbarxon. <i>"Nahju-l-farodis" asari Istanbul va Qozon qo'lyozmalari muqaddimasining chog'ishtirma-tekstologik tadqiqi</i> .....	270
Musulmonova Gulshan. <i>Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy hayoti va ijodiga oid manbalar</i> .....	283
Halimova Shahlo. <i>"Qush tili" turkumidagi dostonlarda g'oya va obrazlar genezesi</i> .....	290
Malikov Akrom. <i>Alisher Navoiy asarlari tanqidiy matnlarini tuzish tajribalariga doir</i> .....	294
Kattayev Po'lat. <i>Maxdumi A'zam Dahbediyning "Majmua ar-rasoil"i matniy tadqiqi</i> .....	306
Jalilov Sharofiddin. <i>Kamoliy devonining tavsifi va tarkibiy tuzilishi</i> .....	314
To'ra Toshmuhammad Zarif. <i>Hofiz Xorazmiy avtobiografiyasi tahlili</i> .....	318
Ahmedov Samariddin. <i>Xorazmlik buyuk shoir va adib qosim al-xorazmiyning asarlari tadqiqi</i> .	323
Ilasheva Iqboloy. <i>Saidbek Hasanov ilmiy biografiyasi va matnshunoslik faoliyati</i> .....	327
Egamberdiyeva Shamsiya. <i>Umumturkiy tillar allalarida beshik obrazi</i> .....	331
Ro'ziyev Elbek. <i>O'zbek tili tarixidagi siyosiy nutqning ayrim manbalari tavsifi</i> .....	336
Muxtorov Murodjoja. <i>Alisher Navoiy ruboiylari matnidagi musiqiy istilohlar sharhi</i> .....	339
Bobomurodova Sabohat. <i>Ogahiyning "Taviz ul-oshiqin" devonida ilm-fan, san'at bilan bog'liq leksika</i> .....	344
Israilov G'ayrat. <i>Sakkokiy g'azallarida yor tasviri</i> .....	350
Kudratov Muxammadjon. <i>Ogahiy – sermahsul va serqirra tarjimon</i> .....	357
Halimova Shahlo. <i>Qaqnus obrazi genezesi</i> .....	362
Orifjonov Abduraufxon. <i>Munisning hayoti va ijodiga va ungaoid manbalar tahlili</i> .....	369
Soliyev Elyorbek. <i>O'zbek tilidagi tafsirlar xronologiyasi</i> .....	373
Rustamova Dilnoza. <i>Alisher Navoiy toshbosma devonlarining milliy matbaachilikdagi o'rni</i> .....	377
Axmadaliyev Lochinbek <i>"Tazkirai Qayyumiy"ning ilmiy tavsifi</i> .....	384
Jo'raboev Ikromjon. <i>Tasavvuf maktablari va tariqat turlari</i> .....	399
Allaberganov Allabergan. <i>«Al-kashshof»ning boshqa tafsirlardan alohida hususiyatlari</i> .....	408
Shukurova Zilola. <i>Antologiyaning o'zbek adabiyoti rivojidadagi o'rni</i> .....	414
Jurayev Muzaffar. <i>Qo'qon xonligi tarixnavislik maktabi, xonlik hujjatlarining matniy tadqiqi</i> .....	420
Ahadov Inomjon. <i>XIX asr oxiri xx asr boshlari Xorazm adabiy muhiti, Haqiriy ijodi matniy tadqiqi</i> .....	426
Ochilova Sarvinoz. <i>"Sadoyi Turkiston" gazetasi 1-sondagi materiallar tartibi va tahlili</i> .....	438
Safarova Farangiz. <i>"Turkiston viloyatining gazetasi"ning bir nashr tavsifi</i> .....	443



эзгулик қилиш, эътиқодда собитлик ҳамда тарихий воқеалардан ибрат олган ҳолда эзгу амаллар билан яшаш каби юксак ғоялар илгари сурилган.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. 2- китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1967.
2. Равшанов Ф. Холис ва унинг адабий мероси. Фил.ф.н.дис. – Самарқанд, 1997.
3. Soyipov S. «Qissayi Sayqaliy» asari qo‘lyozma nusxalarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi. Монография. –Т.:”VNESHINVESTPROM” nashriyoti, 2020.
4. Зуфунун қиссаси. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 1993.
5. Ҳазрати Али ҳақида қиссалар. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи С.Рафиддинов. – Т.: Ёзувчи, 1992.
6. Имом Ҳасан ва Имом Ҳусайн қиссаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2003.

## **FOLKLORSHUNOSLIK MANBALARIDA MAQOLLARNING BERILISHI, O‘RNI VA XUSUSIYATI**

**Adizova Obodon Istamovna**

*Buxoro davlat universiteti, (PhD), dotsent*

**G‘aybullayeva Gulmera Sayfullo qizi**

*Buxoro davlat universiteti talabasi*

### **Annotatsiya**

Maqolada folklorshunoslikda va manbashunoslikda maqol janrining o‘rni va uning taraqqiyoti haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Folklogra xos matnlarda maqollarning berilishi, milliylik tushunchalari o‘rganilgan hamda ayrim maqollar ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

**Tayanch so‘zlar:** folklorshunos, adabiyotshunoslik, manbashunoslik, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy matn, xarakter, urf-odat, etnografiya

### **Annotatsiya:**

**В данной статье** представлены сведения о месте жанра пословицы и его развитии в фольклористике и источниковедении. Изучена подача пословиц в фольклорных текстах, понятия народности, научно проанализированы некоторые пословицы.

**Ключевие слова:** фольклорист, литературоведение, источниковедение, фольклор, исторический текст, персонаж, традиция, этнография



**Abstract:**

**The article:** The article provides information about the place of the proverb genre and its development in folklore and source studies. The presentation of proverbs in folklore texts, the concept of nationality have been studied, and some proverbs have been scientifically analyzed.

**Key words:** folklorist, literary criticism, source study, folklore, historical text, character, tradition, ethnography

Xalq og'zaki ijodida folklorshunoslik janrining tarixiy merosi, adabiyotshunoslik va manbashunoslikda esa maqollarning berilishi, o'rni va xususiyati ilmiy tadqiqot ishlarida muhim o'rin egallaydi. Maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, donolar yoki donishmandlar so'zi va otalar so'zi atamaları bilan el orasida yurgan bu janr namunalari g'oyat ommaviy bo'lib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi. Maqol arabcha "qavvola" so'zidan olingan va "aytmoq, so'zlamok" ma'nolarini anglatadi. Xalq orasida «Qavlida sobit» yoki «Qavlida tuturuqsiz» iboralari bor: birinchisida "so'zida qatiyatli, bir so'zli" ma'nolari anglashilsa, ikkinchisida "so'zida turmaydigan, o'z so'zi ustidan chiqa olmaydigan, so'zi bilan ishi bir bo'lmagan" manolari ifodalangan. Binobarin, "maqol" so'zi o'zbek tilida ikki manoda, avvalo, o'z lug'aviy manosida - "so'z, nutq"ni anglatga, ikkinchidan, istilohiy manoda - folklorda keng tarqalgan janrni ifoda etadi.

Maqollar og'zaki badiiy ijod va falsafa oralig'ida turgan hodisa bo'lib, ularda aytilgan hukmni hech kim inkor etolmaydi. Chunki bunday hukm, avvalo, asrlar davomida turmush tajribasida qayta-qayta sinalib tasdiqlangan, so'ngra esa, xuddi shu xususiyati tufayli tarix hikmatiga aylanib tashviqiy mohiyat kasb etgan. Shuning uchun maqollardagi fikrlar tinglovchilar tomonidan e'tirozsiz, hech bir qarshiliksiz va izohsiz qabul qilinishi odatiy holdir. Maqollarda har bir xalqning dono siymosi, tarixiy taqdiri, mentaliteti, bag'rikengligi, saxovati, adolatpeshaligi, ilmga, mehnatga chanqoqligi, bunyodkorligi, mehmondo'stligi, oilaparvarligi, bolaparvarligi, mehmonnavozligi, to'g'riligini, sevgi-sadoqati, jo'shqinligi, tiyrakligi, g'ayrat-shijoati, quvonchi, iztirobi, dushmanlariga qahr-g'azabi, betakror urf-odatları va an'analari yaqqol aks etib turadi. Xalq shu maqollari orqali kelajak avlodiga o'z turmush tajribalaridan saboq beradi. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, ular xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir.

Maqolga Larousse lug'atida qisqa ta'rif berilgniga guvoh bo'lamiz, shunday bo'lsa ham maqollar, vaqt o'tishi bilan mashhur bo'lib boraveradi. Maqol mashhur bo'lib qolgan qisqa og'zaki badiiy ijodning natijasi ekanligi rost bo'lsa-da, shuni aniqlash kerakki, hamma og'zaki ijod va ta'riflar mashhur bo'lavermaydi va shuning uchun ularning hammasi ham maqol emas. Shuningdek, maqolga oid boshqa ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

Petit Robert 1 lug'atida biz maqollarni "Tajriba haqiqati yoki butun ijtimoiy guruhga xos bo'lgan amaliy va ommabop donolikning maslahati, elliptik formulada,

odatda, tasviriy va majoziy” deb ta’riflanganligini ko’ramiz. Alen Montandon uchun esa: “Maqol o’zining qisqa, elliptik va tasviriy ifodasida, tajriba haqiqati, butun ijtimoiy guruh uchun umumiy amaliy donolik maslahati sifatida berilgan”deb atashini guvoni bo’lamiz.

Oxunjon Safarov esa “O’zbek xalq og’zaki ijodi” asarida maqolga quyidagicha ta’rif beradi: «Maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g’oyat ixcham, lo’nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug’ilgan hodisadir ». <sup>135</sup>

Maqollar ma’lum vaziyatda, ma’lum voqea-hodisa munosabati bilan yoki fikrni boshlash oldidan, yoki fikr bayoni jarayonida, yoki fikrni xulosalash maqsadida aytiladi. Uni keksayu yosh baravar aytsa-da, ko’proq hayotiy tajriba egasi bo’lgan katta avlod nutqida faolroqdir. Maqollarni ish jarayonida ham, oddiy yoki jiddiy muomala-munozaralarda ham, to’y-hashamlarda ham aytish mumkin. Har bir gapga bir maqolni qo’shib, fikrni dalillash, tasdiqlash yo inkor etish asosida nutqning ta’sir kuchi oshiriladi. Bunday nutq tinglovchini befarq qoldirmaydi, uning his-tuyg’ulariga tez ta’sir qilib, fikrini uyg’otadi, adolatli xulosalarga kelishi va hukm chiqarishini ta’minlaydi. Maqollarning axloqiy hukm sifatidagi mohiyati shunda ko’rinadi, zero, maqollarda hukmdan kechinmaga qarab boriladi. Maqollarda ajdodlarimiz axloqiy qarashlari narsa-hodisalarga munosabatlari, ruhi va tafakkuri sezilib turadi. Ularda ifodalangan yagona hukm har bir tinglovchida har xil kechinma yoki fikr uyg’otishi tabiiy. Lekin baribir barcha bir xil xulosaga keladi.

Maqollarda mantiq kuchi baland, fikr ishonarli va bahslashishga o’rin qoldirilmagan. Shu sababli ulardan nutqning istalgan joyida, istalgan maqsadda foydalanish mumkin. Shunga qaramay, maqollar, odatda, jiddiy tusda aytiladi va tinglanadi. Lekin bazi hollarda maqollar kinoya, piching, istehzo, zaharxanda manolarida ham ishlatilishi mumkin: “Jo’jani kuzda sanaydilar” maqolida ishining natijasi ko’rinmay maqtanadigan kishilarga kinoya, “Gado arazlasa-to’rvasiga ziyon” maqolida huda-behudaga achchiqlanadigan kishilarga zaharxanda manolari ifodalangan.

Maqollar ma’no-mazmunini to’la anglash va idrok etish uchun tinglovchi, avvalo, o’sha maqolni yaratgan xalqning tarixini, dunyoqarashini, urf-odatlarini, diniy aqidalarini, o’sha xalq yashayotgan yurtning jug’rofiy muhitini, hayvonlar va o’simliklar dunyosini, iqlim sharoitlarini puxta bilmog’i lozim. Chunki har bir maqol o’zicha mustaqil qomusiy asar bo’lib, uning asosida kishilik yaratgan bilimlarga oid tushunchalar o’zaro qorishib ketgan. Maqollarning kelib chiqishi qadim zamonlarga borib taqaladi, chunki bugungi kunga qadar, maqolning birinchi yozma izlari Qadimgi Misrga to’g’ri keladi. Bu sivilizatsiyaning asos solingan qadimiy davrligi bo’lsa, u miloddan oldingi III ming yillikda boshlanib, Rim imperiyasining paydo bo’lishi (miloddan oldingi 31 yil) bilan tugaydi. Maqollarni aks ettiruvchi birinchi matn

<sup>135</sup> O.Safarov. O’zbek xalq og’zaki ijodi. Toshkent. « Musiqa », 2010.



miloddan oldingi 2400-yillarda Misrning oliy martabali shaxsi Ptahxotep ta'limoti yoki Ptahxotepning Maksimlar kitobida keltirilgan.

Bu 1843 yilda fransuz tadqiqotchisi Emile Prisse d'Avesnes tomonidan topilgan papirus bo'lib, bu topilma insoniyat tarixining birinchi qo'lyozmalaridan biridir. Xalq maqollari ko'p asrlik tadrijiy yo'lni bosib, avlodan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tish jarayonida yanada silliqalanib, zamon ruhiga yo'g'rilib, teranlashib borgan, hamda ijtimoiy hayotdagi o'zgarish ularda ham aks topa borgan.

Jahondagi barcha xalqlarda yashamoqning asosiy sharti-yemoq va kiymoq bo'lib, buning moddiy negizi ekin ekish va undan mo'l-ko'l hosil olgan holda ham moddiy, ham ma'naviy imkoniyatlarini ta'minlashdir. Ekin ekish uchun yerni qay vaqtda shudgor qilish uning unumdorligini oshiradi? Bu savol javobi necha asrlik dehqonchilik tajribasining axloqiy xulosasi sifatida "Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydasang, yuz hayda" maqolining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Qolaversa, xalq turmushidagi tajriba bir xil xulosalarni keltirib chiqargan. Natijada mohiyatan bir mazmundagi maqollar yuzaga kelgan. Chunonchi, o'zbeklardagi "Bug'doydan-bug'doy, arpadan-arpa" va "Nima eksang-shuni o'rasan" maqollari « Du blé au blé, de l'orge à l'orge », « Vous récoltez ce que vous semez » fransuzlarda shu shakllarda qo'llanilib kelgan. Bu holat xalqlarning o'zaro manaviy aloqalari ta'siri yanada chuqurlashib borayotganligi natijasi ham bo'lishi mumkin. U holda maqolning dastlab qaysi tilda yaratilganligini aniqlash oson emas. Shu sababli turli tillarda mavjud bir xil mazmundagi maqollarni o'sha xalqlar turmush tarzidagi o'xshash jihatlarga oid hayotiy tajribalarning mantiqiy-axloqiy yakunlari sifatida qarash asosliroqdir. Har bir xalq maqollarida o'sha xalqning milliy tabiatiga xos qarashlari ifodalanadi. Masalan: "Do'stingga qarz berib, do'stingdan ham, pulingdan ham ayrilasan", "Qui prête à l'ami perd au double" yoki "Qarz bersang, do'st ko'payar, Talab qilsang – dushman", "C'est en forgeant qu'on devient forgeron" – "Usta ishlab o'rganadi", "On ne fait pas d'omelettes sans casser les œufs" – "Jondan kechmasang, jonona qayda, toqqa chiqmasang, do'lona qayda?", "La vie est une échelle, les uns montent, les autres descendent" – "Borga – bor dunyo, yo'qqa – tor dunyo", "Qui suit les poules apprend à gratter" – « Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi», « Mieux vaut aujourd'hui un œuf que demain un bœuf », kabi maqollari orqali xalq kelajak avlodiga o'z turmush tajribalaridan saboq beradi.

Bir qismli maqollar va nisbatan ko'p qismli maqollar mavjud bo'lib, ular tez o'zgarishga moyilroqdir. Chunki ba'zi holatlarda maqol aytuvchining unda ifodalanayotgan ma'noni tushunib etmasligi yoki eshitganini eslay olmasligi natijasida o'zicha qo'shimcha so'zlar, izohlar qo'shishi tufayli maqolning yo mazmuniga, yoki tuzilishiga jiddiy zarar etkazilishi mumkin. Bunday vaziyatda o'sha maqolda asosiy fikrni tashigan uzvlardan birining tushirilib qoldirilishi hech gap emas. Binobarin, maqollarni aytish va tinglash ham alohida e'tibor va ma'suliyatni taqozo etadi. Aks holda beparvolik tufayli maqolning asl ma'nosiga putur etkazilib, kelajak avlodga noto'g'ri talqinda o'tib qolishi va mantiqqa zid ma'noda qo'llanilishi mumkin.





Xulosa qilib aytganda, maqollar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o'sha xalqning barcha o'y - fikr-lari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l - atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova O. I. The exceptional in the works of Van Genep. Special issue ijssir april 2023 issn 2277-3630 (online), published by international journal of social sciences & interdisciplinary research., comparative study of literature, comparative linguistics, translation studies ,2023y,121-126b
2. Adizova O.I.Folklorshunoslikka bir nazar. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to'plamini 30-aprel 2023-yil127-131b
3. Adizova O. I. Les contes biographiques et esthétiques. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938
4. Adizova O. I. Medieval Tales and Fairy Tales in the 17th Century. Journal of Survey in Fisheries Sciences 10(2S) 1689-1697, 2023 Skopus
5. Arnold Van Genep Le folklore. Croyances et coutumes populaires françaises. Paris : Librairie Stock, 1924, 16 p. Édition complétée le 3 août, 2009 à Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec
6. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. T.: "Musiqachi", 2010.72b
7. O'zbek xalq maqollari. Ikki tomlik. T.: "Fan", 1-tom, 1987, 2-tom, 1988.11b
8. O'zbek xalq maqollari. T.: "Sharq", 2003.48b.
9. В.Я.Пропп. Фольклор и действительность. Избранные статьи. Москва: издательство « Наука», 1976,16стр
10. Xamidova .M. Fransuz va o'zbek she'riyatida deopetonimlarning badiiy qo'llanilishi.Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 3(10.00.00;N1),210-215.2020
11. M.Xamidova Fransuz va uzbek makollarda meteonimlar. Sentr nauchnix publikatsiy (buxdu.uz)32(32),2023.
12. Jumaxo'ja, Nusratullo, and Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyoti tarihi:(XVI-XIX asr I yarmi)-O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 21-noyabr 5-sonli qaroriga asosan 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik. Innovatciya-Ziyo, 2020.
13. ADIZOVA, Iqboloy. "AMIRIY ADABIY MEROSIDA TAXMISLARNING O'RNI."Oltin bitiglar"-Golden Scripts 2.2 (2019).
14. Narzullaeva, D. B. (2023, January). HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE QURAN INTO FRENCH. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 116-118). <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1495>



**UO'K 82.09:801.73**

**KBK 83.3**

**Sh 91**

**ISBN 978-9943-8958-5-0**

**“ADABIY MANBASHUNOSLIK VA MATNSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI / – TOSHKENT: 2023. BET.**

**Mas'ul muharrir:**

**Sh.Sirojiddinov**

*filologiya fanlari doktori, professor*

**Tahrir hay'ati:**

**Zohidov R.F.,**

*filologiya fanlari doktori, professor;*

**Abdulxayrov M.X.,**

*filologiya fanlari doktori, professor;*

**Shukurova Z.Y.,**

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;*

**Izzatillayev P.I.,**

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;*

**Azizulloh A.A., dotsent;**

**Mansurov S.H., katta o'qituvchi;**

**Asrorov K.O. o'qituvchi;**

**Jalilov Sh.S, o'qituvchi;**

**Ne'matov A.A., magistrant.**

